

METAFORA TARJIMASINING LINGVOKULTUROLOGIK ASPEKTLARI

Jumayeva Umida Azamat qizi,

Samarqand davlat chet tillari instituti tayanch doktoranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada metafora tarjimasining lingvokulturologik aspektlari hamda tarjima jarayonida madaniy omillarning o'ri tahlil qilinadi. Metaforalar nafaqat stilistik vosita, balki xalqning dunyoqarashi, tarixiy tajribasi, urf-odatlar va mentalitetini aks ettiruvchi kognitiv hamda madaniy hodisa sifatida o'rganiladi. Tadqiqotda milliy-madaniy xususiyatga ega metafora, maqol va frazeologik birliklarni tarjima qilishda yuzaga keladigan muammolar ko'rib chiqiladi. Shuningdek, tarjimashunoslikdagi madaniy filtr, dinamik ekvivalentlik va kommunikativ ekvivalentlik tushunchalarining ahamiyati yoritiladi.

Kalit so'zlar: lingvokulturologiya, madaniy filtr, madaniyatlararo kommunikatsiya, dinamik ekvivalentlik, konseptual tizim, kommunikativ ekvivalentlik, kognitiv tilshunoslik.

Аннотация. В данной статье анализируются лингвокультурологические аспекты перевода метафор и роль культурных факторов в процессе перевода. Метафоры рассматриваются не только как стилистическое средство, но и как когнитивное и культурное явление, отражающее мировоззрение народа, его исторический опыт, традиции и менталитет. В исследовании рассматриваются лингвистические и прагматические проблемы, возникающие при переводе метафор, пословиц и фразеологических единиц, обладающих национально-культурной спецификой. Также освещается теоретическое и практическое значение таких понятий переводоведения, как культурный фильтр, динамическая эквивалентность и коммуникативная эквивалентность. В статье особо подчеркивается роль переводчика как посредника между культурами.

Ключевые слова: метафора, перевод метафоры, лингвокультурология, культурный фильтр, межкультурная коммуникация, динамическая эквивалентность, коммуникативная эквивалентность, концептуальная система, когнитивная лингвистика.

Abstract. This article analyzes the linguocultural aspects of metaphor translation and the role of cultural factors in the translation process. Metaphors are interpreted not only as stylistic devices, but also as cognitive and cultural phenomena reflecting a nation's worldview, historical experience, traditions, and mentality. The study examines the linguistic and pragmatic problems that arise in translating metaphors, proverbs, and phraseological units with national and cultural characteristics. In addition, the theoretical and practical significance of such concepts as cultural filter, dynamic equivalence, and communicative equivalence in translation studies is highlighted. The article also emphasizes the role of the translator as an intercultural mediator.

Keywords: metaphor, metaphor translation, linguoculturology, cultural filter, intercultural communication, dynamic equivalence, communicative equivalence, conceptual system, cognitive linguistics.

Kirish. Metafora tilning eng murakkab va ko'p qatlamli birliklaridan biri bo'lib, u nafaqat badiiy tasvir vositasi, balki inson tafakkuri va dunyoni idrok etish mexanizmining muhim tarkibiy qismidir. Zamonaviy lingvistika, ayniqsa kognitiv tilshunoslik rivojlanishi natijasida metafora oddiy stilistik hodisa emas, balki insonning konseptual fikrlash modeli sifatida talqin qilinmoqda. Shu bois metaforalarni tarjima qilish jarayoni ham faqat til birliklarini almashtirish emas, balki turli madaniyatlar, mentalitetlar va konseptual tizimlar o'rtasidagi murakkab muloqot sifatida namoyon bo'ladi. Bugungi globallashuv sharoitida madaniyatlararo kommunikatsiyaning kengayishi tarjima nazariyasida lingvokulturologik

yondashuvning ahamiyatini yanada oshirdi. Har bir xalqning tarixiy tajribasi, diniy qarashlari, urf-odatlari va qadriyatlari til orqali, ayniqsa metaforalarda yorqin aks etadi.

Adabiyotlar tahlili. G. Lakoff va M. Jonson (1980) metaforani inson tafakkurining kognitiv modeli sifatida talqin qilib, uning konseptual tizimdagi o‘rnini asoslab bergan. E. Nida (1964) tarjimada dinamik ekvivalentlik tamoyilini ilgari surib, mazmun va ta’sir birligini muhim deb hisoblaydi.

P. Nyumark (1988, 1995) tarjimada madaniy omillar va muallif niyati o‘rtasidagi muvozanatni ta’kidlaydi. S. Bassnett (2011), E. Gentzler (1993) va Hatim & Mason (1990) tarjimani madaniyatlararo jarayon sifatida ko‘rib, “madaniy filtr” va konnotativ ma’nolarni uzatish muhimligini asoslaydi.

J. House (2006) esa tarjimada pragmatik va funksional moslikni ta’minlash zarurligini ko‘rsatadi. Umuman olganda, adabiyotlar metafora tarjimasini lingvokulturologik va kognitiv jarayon sifatida izohlaydi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda tavsifiy, qiyosiy va lingvokulturologik tahlil metodlaridan foydalanildi. Tavsifiy metod metaforik birliklarning xususiyatlarini aniqlashga, qiyosiy metod ingliz va o‘zbek tillaridagi metaforalarni solishtirishga xizmat qildi. Lingvokulturologik yondashuv esa metaforalarda aks etgan madaniy kodlarni tahlil qilish imkonini berdi. Tadqiqot materiali sifatida maqollar, frazeologizmlar va badiiy matnlardagi metaforalar olindi.

Tahlillar va natijalar. Lingvokulturologiya – bu til va madaniyat o‘rtasidagi o‘zaro munosabatni o‘rganadigan fan. Metafora esa shu munosabatning eng muhim vositalaridan biridir. Har bir metafora muayyan xalqning dunyoni idrok etish uslubini; tarixiy, diniy, mifologik va hayotiy tajribasini, mentalitet va qadriyatlar tizimini aks ettirishi bilan lingvomadaniy jihatdan o‘rganilishga turtki bo‘ladi.

Metafora tarjimasining lingvokulturologik aspektlari tarjimon oldiga madaniy kodlarni chuqur o‘rganish zaruratini qo‘yadi. Tarjimada muvaffaqiyatga erishish uchun til so‘zlovchilarining dunyoqarashini to‘g‘ri anglash, ramziy obrazlarni idrok etib, ularni to‘g‘ri talqin qilish va shu bilan birga madaniy ma’lumotni yo‘qotmagan holda kitobxonga yetkazish bilan belgilanadi. Metafora tarjimasini shu asnodan faqat lingvistik yoki stilistik emas, madaniyatlararo muloqotning muhim tarkibiy qismi sifatida ham tadqiq etilishi zarurdir.

Lingvomadaniy tomondan metaforalar bir nechta turga bo‘linadi. Bulardan asosiylari *Milliy madaniy metaforalar, universal metaforalar va diniy mifologik metaforalar*dir.

Universal metaforalar – deyarli barcha madaniyatlarda uchraydigan, barcha xalqlar uchun tushunarli bo‘lgan metaforalar bo‘lib, ular tarjima jarayonida deyarli qiyinchilik tug‘dirmaydi.

Bir qancha metaforalar universal xususiyatga ega bo‘lishiga qaramasdan aksariyat metaforalar milliy – madaniy xususiyatga ega bo‘ladi. Muayyan xalq urf odatlari va

qadriyatlarini namoyon etuvchi bunday metaforalar yuqorida ta'kidlaganimizdek tarjimon oldiga bir qancha muammolarni qo'yadi.

Almisoqdan qolgan, yoki inglizcha *Pandora's box* kabi diniy va mifologik metaforalar ham tarjima jarayonida turli xil muammolar keltirib chiqarishi mumkin. Shu kabi muammolar sababli tarjima jarayonida ba'zan metaforalar aslyat tilidan tarjima tiliga turli o'zgarishlar orqali o'tadi.

Tarjima jarayonini uzluksiz madaniy uyg'unlashuv sifatida talqin qilish uni lingvistik chegaralardan tashqariga olib chiqadi. Bu jarayonning boshlang'ich nuqtasi ma'noni yetkazish bo'lsa-da, yana bir asl maqsadlardan biri – madaniyatlararo moslikni ham ta'minlashdir. Tarjimon asl matnning madaniy me'yorlari, tarixiy an'analari, konnotativ qatlamlari va yashirin semantik yukini anglashga intilib, tarjima qilingan matnning qabul qiluvchi madaniyatdagi o'rnini, undagi ijtimoiy-pragmatik moslikni va o'quvchi uni qanday qabul qilsini ham hisobga olishi kerak.

Nyumark fikricha, tarjima jarayonining markazida muallif niyati bilan o'quvchi ehtiyojlari o'rtasidagi murakkab vositachilik mavjud.[3.48] Bu jarayonda tarjimon "ikkinchi muallif" sifatida qatnashadi: u muallif uslubini yo'qotmasligi, lekin o'quvchiga ham begona bo'lib qolmasligi zarur. Shuning uchun tarjima "lingvistik ko'chirish" emas, unda mazmun bir kontekstdan boshqasiga ko'chishi bilan birga, yangi madaniy sharoitda qayta yashay boshlaydi.

Ayniqsa, metafora, maqol, frazeologizmlar kabi milliy-madaniy belgilangan birliklar tarjimasida ushbu jihat yanada kuchli namoyon bo'ladi. Bu birliklar ko'pincha xalqning kollektiv ongida shakllangan konseptual tizimga tayangan bo'lib, ular ko'chirilayotganda madaniy kodlarning mosligi yoki mos emasligi tarjima strategiyasini belgilab beradi.

Tillarning rivojlanishi ularni so'zlovchi jamoalarning ehtiyojlari bilan bevosita bog'liq. Dunyoni idrok etishdagi farqlar leksik tizimda ham o'z aksini topadi. Masalan, arab tilida cho'l hayoti bilan bog'liq tushunchalar — qum, shamol, tuya, sahro — juda ko'p nomlarga ega. Inuit tilida esa qorga oid bir necha o'nlab nomlar mavjud. Bu hodisa tilning "qo'llanishga asoslangan modeli"ni, ya'ni jamoaning ehtiyoji va tajribasi tilning semantik tuzilishini belgilashini ko'rsatadi.

Ana shunday hodisalar tarjimada "madaniy filtr" tushunchasini faollashtiradi. Madaniy filtr tarjima jarayonida manba madaniyatga xos unsurlarni qabul qiluvchi madaniyatning me'yorlariga moslashtirish strategiyasini anglatadi. Hatim va Mason bu jarayonni tarjimonning intertekstual ishoralarni, yashirin madaniy signallarni, konnotativ ma'nolarni ko'chirishdagi asosiy vositasi deb hisoblaydi .[5.27]

Madaniy filtr ikki shaklda namoyon bo'lishi mumkin: manbaga yaqinlashuvchi (source-oriented) yondashuv – manba madaniyatni maksimal darajada saqlash, o'quvchini manba madaniyatiga yaqinlashtirish; nishon madaniyatga yaqinlashuvchi (target-oriented) yondashuv – matnni nishon madaniyat me'yorlariga moslab qayta shakllantirish.

Gentzler [7.51] va Bassnett [6.83] tarjimashunoslikning zamonaviy yo‘nalishlarida aynan tarjimonning madaniy vositachi sifatidagi rolini asosiy o‘ringa qo‘yadi. Tarjimon til biluvchi emas, madaniyatlar o‘rtasida aloqadorlik o‘rnatuvchi, ma‘no yaratuvchi faol subyektdir. Shu sababli tarjima jarayoni lingvistik emas, balki lingvokulturologik voqelik sifatida talqin qilinishi tobora dolzarblashib bormoqda.

Madaniy filtr (Cultural filter) tushunchasi tarjima jarayonida muhim metodologik vosita sifatida namoyon bo‘ladi. House [8.16] tomonidan ta‘kidlanganidek, u **manba** va **maqsad** madaniyatlaridagi kutishlar, normalar, diskurs konventsionalari va kognitiv farqlarni moslashtirishga xizmat qiluvchi interpretativ mexanizmdir. Bunday filtr ayniqsa metafora, idioma, maqol va hikmatli iboralar kabi frazeologik birliklarni tarjima qilishda o‘zining amaliy ahamiyatini yanada kuchliroq namoyon etadi. Chunki bunday birliklar ko‘pincha tilning semantik tuzilishi bilan bir qatorda, xalqning madaniy tajribasi, tarixiy xotirasi, geografik sharoiti va dunyoqarashi bilan bog‘langan bo‘ladi. Shuning uchun ularni so‘zma-so‘z tarjima qilish odatda maqsad matnida mazmunning buzilishiga, konnotativ ma‘noning yo‘qolishiga yoki mantiqsiz shaklga kelib qolishiga olib keladi.

Masalan, inglizcha “*Every dog has its day*” maqoli oddiy hayvonotga oid kuzatuvdek tuyulishi mumkin, ammo bu birlikning to‘g‘ri tarjimasi madaniyatlararo bilimga tayanadi. Ingliz madaniyatida it qadimdan pastroq mavqedagi hayvon hisoblangan va shu asnoda “itning ham kuni keladi” deyish orqali - hatto eng oddiy yoki past baholangan inson ham bir kun muvaffaqiyatga erishadi degan ma‘noni beradi. Bunda kognitiv model:

LOW STATUS --> FUTURE SUCCESS

tarzida ifodalanmoqda.

“*One swallow doesn’t make a summer*” maqolida Ingliz tilida qaldirg‘ochning kelishi yozning boshlanishi bilan bevosita assotsiatsiya qilinadi. O‘zbek tilida ham bu tushuncha madaniy o‘xshashlik orqali to‘g‘ridan to‘g‘ri qabul qilinadi, lekin bu maqolning so‘zma so‘z tarjimasi boshqa bir til uchun ma‘nosiz yoki noaniq bo‘lib qolishi mumkin. Keyingi misol sifatida “*Add fuel to the fire*” maqolini o‘zbek tiliga tarjima qiladigan bo‘lsak, uni bu tilda mavjud bo‘lgan “Olovga moy sepish” brikmasi tarzida o‘giramiz, chunki ushbu maqolni “*olovga yoqilg‘i quyish*” shaklida so‘zma so‘z tarjima qiladigan bo‘lsak, shakliy jihatdan nomutanosiblikka duch kelamiz. Shu sababli tarjimon kontekstual moslashtirish orqali ma‘noni qayta qurishi zarur bo‘ladi. Bu esa House ta‘kidlagan “madaniy filtr”ning to‘laqonli ishlashidir.

Bu holat madaniy filtrning vazifasi faqat lingvistik ekvivalentni topish emas, balki madaniy ekvivalentni tiklash, ya‘ni manba tilidagi birlikning qaysi madaniy hodisalar bilan bog‘liqligini aniqlab, uni tarjima til madaniyatidagi eng yaqin kommunikativ vosita orqali qayta yaratishdan iboratdir. Shu ma‘noda tarjimon — madaniyatlararo vositachi sifatida harakatlanadi. Bunday yondashuv tarjimaning dinamik ekvivalentlik [4.159-160] kommunikativ ekvivalentlik [2.47] tamoyillari bilan ham bog‘liq bo‘lib, ularning barchasi

o'quvchi uchun maqbullik (acceptability) va o'quvchi tajribasiga moslikni ta'minlashga qaratilgan.

Shunday qilib, madaniy filtr yordamida tarjima jarayonida kognitiv farqlar, madaniy tajriba tafovutlari, milliy dunyoqarash modellari aniqlanadi va interpretatsiya qilinadi, natijada asl matn mazmuni tarjima tili madaniyatida kommunikativ va pragmatik jihatdan adekvat shaklda qayta yaratiladi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, metafora tarjimasida lingvistik jarayon bilan cheklanib qolmay, murakkab lingvokulturologik hodisa sifatida ham namoyon bo'ladi. Metaforalar xalqning tarixiy xotirasi, madaniy tajribasi, mentaliteti va konseptual dunyoqarashi bilan chambarchas bog'langanligi sababli ularni tarjima qilish tarjimondan nafaqat til bilimini, balki chuqur madaniy kompetensiyani ham talab qiladi. Ayniqsa milliy-madaniy xususiyatga ega metaforalarni tarjima qilishda so'zma-so'z yondashuv aksariyat hollarda mazmunning buzilishiga yoki konnotativ ma'noning yo'qolishiga olib keladi.

Tadqiqot davomida metafora tarjimasida "madaniy filtr" tushunchasi muhim metodologik vosita ekanligi aniqlandi. Ushbu yondashuv yordamida manba tilidagi madaniy kodlar tarjima tili madaniyatiga mos ravishda interpretatsiya qilinadi va o'quvchi uchun kommunikativ jihatdan adekvat shaklda qayta yaratiladi. Shu bilan birga, dinamik va kommunikativ ekvivalentlik tamoyillari tarjima jarayonida o'quvchi qabulini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, maqolada ingliz va o'zbek tillaridagi metafora hamda maqollar misolida madaniy o'xshashlik va tafovutlarning tarjima strategiyasiga bevosita ta'siri ko'rsatib berildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Lakoff, G., & Johnson, M. (1980). *Metaphors we live by*. The University of Chicago Press.
2. Newmark, P. (1988). *A textbook of translation*. Prentice Hall.
3. Newmark, P. (1995). *Approaches to translation*. Phoenix ELT.
4. Nida, E. A. (1964). *Toward a science of translating*. E. J. Brill.
5. Hatim, B., & Mason, I. (1990). *Discourse and the translator*. Longman.
6. Bassnett, S. (2011). *Translation studies* (4th ed.). Routledge.
7. Gentzler, E. (1993). *Contemporary translation theories*. Routledge.
8. House, J. (2006). *Text and context in translation*. Universität Hamburg.